ota - onasi huzuridagi omonat bo‘lib, uning qalbi pokiza gavhardir. U har qanday naqshni qabul qilaveradi. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa o‘shanday o‘sadi. Agar yomonlikka o‘rgatilsa o‘shanday o‘sadi. Shuning uchun ham biz bolalarni tarbiya bermoqlikka go‘dakligidan e’tibor bermog‘imiz, eng avvalo, o‘zimizni tarbiyalamog‘imiz lozimdir”.[1]

Din psixologiyasining predmeti haqida gap ketganida, o‘z qarashlari bilan din psixologiyasi fan sifatida vujudga kela boshlagan davr olimlari bir necha guruhga bo‘linganlar. Insondagi barcha psixik jarayonlar qaysidir darajada diniy tuyg‘ularda mavjud bo‘ladi, shuning uchun din psixologiyasi deganda, faqat dindorlar psixologiyasini o‘rganishdan iboratdir. Biror bir dinga e’tiqod qiluvchi odam bilan hech qanday dinga e’tiqod qilmaydigan odamning o‘zaro o‘xhash va farqli jihatlarini o‘rganishda deb tushunadilar.

“Olimlarning aytishicha, odam geni ma’lumotlarni tashish xususiyatiga ega ekan. Ya’ni erkakning har bir urug‘ida 15 megabaytgacha ma’lumot bo‘lar ekan. Bu degani sizning har bir qilgan ishingiz o‘z geningizda ma’lumot bo‘lib saqlanib qolar ekan. Demakki, biz qilgan har qanday yaxshi - yomon amallar shunchaki unutilib ketmaydi. Balki genimiz xotirasida saqlanib qoladi va kelgusida surriyodlarimizda fe’l o‘laroq shakillanishi mumkin. Shuning uchun yaxshi amallarimizni ko‘paytirshimiz lozim, chunki har qanday amalimiz farzandimizda aks etishi mumkin. Insonni eng avvalo, go‘zal qiladigan narsa bu uning xulqidir”. [2]

Abdulloh ibn Amr (r.a) dan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Sizlarning yaxshingiz husni xulqingizdir”, dedilar”. [1] Demak, har bir shaxsning xulqi go‘zal bo‘lsa, bir-biroviga siylayi rahim qilsa, doim yaxshilik ulashsa, nafsni poklasa unda axloq sayqal topadi.

Har bir shaxs takrorlanmas hisoblanadi. Ular turlicha fikr yuritishadi va tafakkur qilishadi. Ko‘pchilik shaxslarda biz asosan dunyoviy tashvishlarni deb hissiy - emotsiional qo‘zg‘alish boshlanganini sezishimiz mumkin. Bunda bizga birinchi o‘rinda din psixologiyasi yordam beradi. Va shunda insonlarga dunyo tashvishlari o‘tkinchi bir matoh ekanligini eslatishimiz va bu matoh esa bizni bunday holatlarga

tushishimizga arzimas ekanligini tushuntirishimiz kerak. Chunki ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab insonlar shu dunyo sababdan o‘zlariga ko‘plab stresslarni qabul qilib olishadi. Inson buning uchun avvalo Yaratuvchini eslamog‘i va uning buyrug‘lariga itoat qilmog‘i darkor hisoblanadi. Bu esa insonlarni ortiqcha stressdan qutqaradi va doimo ruhiy sog‘lom bo‘lib yurishiga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, Allohga ibodat qilgan vaqtida, inson sajda qiladi va shu sajda holatida uning bosh miyasida qon aylanish yaxshilanadi va bundan inson rohatlanadi. Din psixologiyasi avvalo insonning faoliyatida namoyon bo‘lishi lozimdir. Faoliyatning o‘zi nima? Anglanilgan maqsad bilan boshqariladigan ichki (aqliy), tashqi (jismoniy) faolikka faoliyat deyiladi. [3] Kishining diniy his, tushuncha va yashash tarzi din psixologiyasining asosiy mavzusidir. U shaxsda din tuyg‘usi va hissining qanday qilib kelib chiqqanligi va shakllanishini, hidoyat topish yoki inkor hodisalarini, dindan kelib chiqqan ruhiy keskinlik va shubhalarni tadqiq qiladi. Din bu insonning shakillanishida buyuk bosqich hisoblanadi va to umrining oxiriga qadar rohat bag‘ishlaydi. Insonni yuksak cho‘qqilarga olib chiqadi, go‘zal axloqni shakillantiradi, nafsni poklaydi hamda yomon ishlardan tiyadi. Bu esa ruhiy barkamol yoshlarning shakillanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Inson tug‘ilganidan gavharga qiyoslanadi, unga esa ota - ona tomonidan sayqal beriladi. Mana shunday ekan hurmatli ota - onalar har bir bolaga sayqal bermoqlikda kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaylik, aks holda bolada psixologik bo‘shliq hosil bo‘ladi. Bu esa kelajakda o‘zingizga ham bolangizga ham jamiyatga ham ziyyondir. Psixologiyada din uchta yirik loyihami amalga oshiradi:

1. Muntazam ravishda tavsiflash, xususan diniy mazmun, munosabat, tajriba va iboralar;
2. Dinning kelib chiqishini insoniyat tarixida ham, individual hayotda ham ta’sirlarning xilma - xillagini hisobga olgan holda tushuntirish;
3. Diniy munosabat va xulq-atvorning shaxs uchun va umuman jamiyat uchun oqibatlarini tasvirlab berish. [5]

Din psixologiyasida Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning qarashlari quyidagicha. “O‘zingga ravo ko‘rmagan narsani o‘zgaga ham ravo ko‘rma” iqtibosi, uning g‘oya va mafkurasining eng yuqori pog‘onasida turadi.[6] Konfutsiyning shaxs o‘z –o‘zini anglashda qanday fikrlarga ega bo‘lmog‘i hamda qanday nazariy ilmlarni egallamog‘i haqidagi bayoni insonning diqqatini o‘ziga jalb qilmasdan qo‘ymaydi.

### Xulosa

Din, o‘zi, inson turmushining potensial imkoniyati sifatida borliqning abstraksiyasi bo‘lib maydonga chiqadi. U haqiqiy muayyan hayotga ideal shakl beradi. Din o‘zini diniy munosabatlarda namoyon qiladi va o‘zini dolzarblashtiradi, shularga tayanib haqiqiy turmush maqomga ega bo‘ladi.

Demak, shaxs individ bo‘lib tug‘iladi, u faqat o‘ziga xos bo‘gan geno va fenotipik xususiyatlardan o‘ziga xos majmuyida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan inson faoliyati uning ijtimoiylashuviga kuchli ta’sir o‘tkazadi. Faoliyat insonning o‘zini, butun hayot tarzi va fikrlarini shakllantiradigan tizimni tashkil etuvchi kuch sifatida ishlaydi. Faoliyat - maqsadli va ongli faoliyat, istalgan natijaga erishish uchun ob’ektga ta’sir qilish

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Hadis va Hayot”. 34-juz.Toshkent. “Hilol-Nashr”, 2022,-57 b
2. Jabborov H. H. “Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5. 423.p.
3. Olimov L.Ya., Eshov E.S. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 420.
4. Ostanov Sh. Sh. Role of psychological health of students in the educational process. “International Scientific Journal” Theoretical & Applied Science. 2020, Issue: 01, Volume: 81, 443-446 page.
5. Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: 1994.-312 b.
6. Konfutsiy. “Muhokama va bayon”.-T.:Yangi Asr Avlod 2010,-86.b

## BEHBUDIYNING SIRLI O'LIMI

Eshboyeva Dinora,  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,  
Islomshunoslik yo'nalishi, 2-bosqich talabasi  
[dinoraeshboyeva23@gmail.com](mailto:dinoraeshboyeva23@gmail.com)

**Annotatsiya:** XX asr jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, yoshlarni ilmli va ma'rifatli bo'lishga undagan maorif arbobi Mahmudxo 'ja Behbudiy butun hayotini xalqni ma'rifatli qilishga, davlatni mustaqil taraqqiyot yo'liga olib chiqishga harakat qilgan. Maqolada Mahmudxo 'ja Behbudiyning vafot etishi tafsilotlari aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Xoji Muin, Xojimurod Xudoyberdi, Qarshi, Shahrisabr, Sodiqjon, Ahmad, marsiya.

## MYSTERIOUS DEATH OF BEHBUDI

**Abstract:** Mahmudhoja Behbudi, a great representative of the 20th century Jadidism, an educationalist who encouraged young people to be knowledgeable and enlightened, spent his whole life trying to enlighten the people and lead the state to the path of independent development. The article discusses the details of the death of Mahmudhoja Behbudi.

**Key words:** Khoji Muin, Khojimurad Khudoyberdi, Karshi, Shahrisabz, Sadiqjan, Ahmad, marcia.

Mahmudxo 'ja Behbudiy 1919-yili vafot etadi, ammo ushbu xabar Turkiston o'lkasiga bir yil (1920-yil) o'tgach ayon bo'ladi. 1921-yilda esa uning o'limi rasmiy e'lon qilinadi. Behbudiyning o'limiga bag'ishlab zamonasining ko'plab adabiyotshunos olimlari marsiya, dramalar va maqolalar yozadilar. Ularning ichidan biz uchun muhim bo'lgani Xoji Muinning "Mufti Mahmudxo 'ja hazratlarining qanday

shahid bo‘lg‘onlig‘i va oning tomonidan yozilg‘an vasiyatnama” maqolasidir. Ushbu maqola 1922-yil “Inqilob” jurnalining 1-sonida nashr ettiriladi. So‘ngra Sh.Turdiyev tomonidan 1988-yil 16-sentabrda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftaligida, J.Xudoyberdiyev tomonidan 1993-yilda “Milliy uyg‘onish” to‘plamida qaytadan chop etilib, keng jamoatchilik orasida haqiqat sifatida yashaydi.

Xoji Muinning yozishicha, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1919-yil 25-martda Mardonquli Shomahmud o‘g‘li va Muhammadqul O‘rinboy o‘g‘li bilan Samarqanddan Buxoro sarhadiga o‘tgan, shundan so‘ng ularning qayerda bo‘lganligi haqida aniq ma’lumotlar kelmaydi. Hattoki, ushbu masala yuzasidan xalq orasida har xil gumanli gaplar tarqaladi. “Haqiqat egilsa ham, sinmaydi” deganlaridek, Behbudiy haqidagi haqiqatlar tarix sahnalariga chiqa boshlaydi.

Xoji Muin ushbu maqolada asosan Xojimurod Xudoyberdi o‘g‘lidan kelgan ma’lumotlarga suyanadi. Xojimurod Xudoyberdi o‘g‘li Buxoro inqilobi davrida Shahrisabz va Kitob shaharlarida ishlaydi, undan so‘ng Qarshi shahriga o‘tib, u yerda 6-7 oycha xizmat qiladi. Qarshidagi xizmat safari davomida Qarshi begligida bir necha vaqt “Mahramlik” xizmatida bo‘lgan 17 yoshli farg‘onalik Sodiqjondan Behbudiy va uning hamrohlarining o‘limi to‘g‘risida ma’lumot olgan edi. Sodiqjon 2-darajali mahramlik vazifasida xizmat qilgan. Bekning 1-darajali mahrami va zindonboni Ahmad hamda Sodiqjonlar Behbudiyning suhbatidan bahramand bo‘lib, unga muxlis bo‘lib qoladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning hamrohlari Shahrisabzga keladi va bu yerda qamoqqa olinadi. 2 oydan so‘ng esa Qarshiga jo‘natiladi, u yerda Ahmad va Sodiqjon bilan tanishadilar. Ikki mahram ham Behbudiya muxlis bo‘lib qoladi. Ularning xohishlari bialn Tog‘aybek Behbudiya va uning hamrohlarni huzuriga chaqiradi va nega qamoqqa olinganini so‘raydilar. Behbudiya: “Biz Baytulloh ziyorat etmok uchun Samarqanddan chiqqan edik, yo‘lda Amir ma’murlari “sizlar jadid, kofir va tilchi, deb bizni qo‘lg‘a oldilar. Taftish qilinsin, bizning gunohsizligimiz shoyad ma’lum bo‘lur” – deganlar. Bek esa “sizlar rostan jadid, kofirsizlar. Baytullohni ziyorat qilish esa bir bahona bu yerdan ketish uchun” degan ma’nodagi so‘zlarni aytadi. Ahmad bu haqsiz

gaplarga chiday olmaydi va “Taqsir. Ul bularning ishlarini haqiqatlab ko‘ring. Agar gunohlari sabab bo‘lsa, so‘ngra o‘lduring” deydi. Shunda Bek Ahmadning ham jadid kofir ekanligini aytib, zindonga tashlaydi. Ularni o‘limga hukm qilish uchun Amirdan yaqinda keladigan farmon bilan ularni o‘ldirishini aytadi. Shu paytda Behbudiy o‘rnidan turib, “Bizlar o‘limdan qo‘rqmaymiz. Balki haq yo‘lida o‘lmakni o‘zimiz uchun bir Sharaf deb bilamiz. Munday yo‘lda yolg‘iz biz o‘lmagan, balki ko‘p kishilar to‘g‘rilik va inqilob yo‘lida shahid bo‘lganlar”.

Sodiqjon bir necha kun o‘tgach amirdan bekka o‘lim haqidagi farmon kelganligini aytadi. Shunda Behbudiy o‘lim yaqinlashganini his qilib, vasiyatnomalar yozadi va Sodiqjonga berish uchun Ahmadga beradi. Vasiyatnomaning oxiriga Mardonquli va Muhammadquli ham qo‘l qo‘yadi. Ushbu vasiyatnomadan so‘ng 3-4 kun o‘tib, ular o‘ldirishga buyurildi. Ular uchun bog‘dan qabr qazildi. Ularni o‘limdan oldin namoz o‘qiyotganda, jallodlar ularni namoz o‘qishga qo‘ymaydilar. Hattaoki, Behbudiyning boshini joynamoz ustida oladilar. Qolgan insonlarni ham o‘ldirib, ko‘mik yuborishadi. Qabrlari bilinmasin deb yer bilan tekis qilib tashlaydilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning vafoti haqidagi yuqorida kelgan ma’lumotlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Sodiqjon ushbu voqealar yozib qo‘yadi. Ushbu ma’lumotlarni Xojimurod Xudoyberdi o‘g‘liga ko‘rsatadi, u esa bu haqida “Maorif qurbanlari” dramasini yozadi. Xojimurod Xudoyberdi o‘g‘li so‘zlariga ko‘ra, 1920-yili 21-dekabrda Sodiqjon Amir tomonidan Shahrisabzda o‘ldiriladi. Shundan so‘ng Sodiqjon yozgan voqealar va vasiyatnomaning asl nusxasi yo‘q bo‘lib ketadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning vafoti bag‘ishlab Fitrat, Ayniy, Ch’lpon kabilar marsiyalar yozadi. Ayniy Behbudiya bag‘ishlangan marsiyasida shunday yozadi:

*Saning tarixi davroning, saning osori urfoning,*

*Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmu?*

*Vatan avlodi yot etdi, sani hurmatda shod etdi*

*Va lekin intiqomingni ololurmi, ololmasmu?*

Xulosa qiladigan bo‘lsak Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘limi tasodif emas, balki Qarshi begi tomonidan o‘ldirilgan. Shuningdek, ba’zi kitoblarda ta’kidlanganidek,

Behbudiyning o‘limi 1919-yilning 25-martiga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki 25-martda Xoji Muinning so‘zlariga binoan ular Samarqanddan Buxoro sarhadiga o‘tgan. Shundan so‘ng ma’lum muddatdan so‘ng Shahrisabzga keladi va deyarli ikki yarim oydan so‘ng Qarshida vafot etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qosimov B. Mahmudxo‘ja Behbudiylar. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 280 b.
2. Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiylar. Toshkent – 2010.
3. Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiylar. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
4. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
5. Dinora Eshboyeva. (2023). MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ASARLARINING AHAMIYATI. Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2(3), 83–86.
6. Dinora , E. (2023). MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA ISMOIL GASPRINSKIY. GOLDEN BRAIN, 1(8), 168–171.
7. Eshboyeva, D. (2023). MAHMUDXO ‘JA BEHBUDIYNING “BIZNI KEMIRGUVCHE ILLATLAR” MAQOLASI HAQIDA. Collection of scientific papers «SCIENTIA», (March 10, 2023; Valencia, Spain), 177-178.

## IDENTIFICATION OF REGULATIONS AND RULES IN INTERNATIONAL MULTIMODAL TRANSPORTATION

**Rikhsimboev Azizbek**

Student of Tashkent State Transport University

Email: [renessans12345@gmail.com](mailto:renessans12345@gmail.com)


**Abstract:** *Multimodal transportation is the transportation of goods under an agreement with one carrier using different modes of transport. Transportation takes place in stages, and combinations of river, road, sea, air and rail transport may vary. The main condition is at least two delivery methods in one route. The carrier has the right to use the transport of other counterparties, but all responsibility to the customer lies with the general contractor from whom the transportation is ordered. The organization of multimodal cargo transportation must begin with integrated route planning.*

**Relevance.** Multimodal refers to the transportation of goods using various modes of transport. Accordingly, by multimodal transport we will understand the complex of modes of transport involved in the transportation of goods along the entire route. In some foreign sources, the term multimodal corresponds to the term intermodal.

**Purpose and objectives of the study.** Modern trends in the globalization of the world economy involve the construction of complex supply chains, in which there is interaction between parties, usually located on different continents. The development of such relationships cannot be imagined without the effective organization of a network of multimodal transportation. In recent years, due to the strengthening of trade and economic ties between countries, there is an obvious tendency to increase the volume of goods transported in multimodal traffic. At the same time, the organization and implementation of this type of transportation are influenced by numerous factors of the external and internal environment. The risks associated with the organization of



the transport process and its interaction with market entities are increasing. Problematic issues are uninterrupted, reliable transportation, compliance with delivery times without loss and at minimal cost. The solution of these issues necessitates the development of a high-quality material flow management process in multimodal transportation, on which the achievement of competitive advantages by an enterprise depends.

**Materials and methods.** However, to date there is no internationally agreed terminology for transportation that is carried out with the participation of several modes of transport. Therefore, the development of a unified terminology, in combination with the improvement of the modern international system of sectoral legal regulation of multimodal transportation, seems to be an important and urgent task. At the same time, in addition to developing a single conceptual apparatus for multimodal transportation, it is necessary to develop a standardized and harmonized semantic structure of terms that will be convenient for transport service providers, logistics operators, shippers and other participants in international supply chains.



**Results and discussions.** International multimodal transportation is usually defined as transportation using several modes of transport, carried out under the

responsibility of one carrier under a single transport document and at a single through rate. To date, in the economic and legal literature, such transportation is often called "combined", "mixed", "intermodal". This terminological confusion creates a number of difficulties for the parties to the transportation and the law enforcer. In addition, there is no single approach to the definition of multimodal transportation itself, which largely explains the absence of an imperative fixation of this institution in the legislation of many states and a generally accepted proclamation at the international level.



**Conclusions.** The main features of multimodal transportation are the phased use of several types of transport, the responsibility of one carrier for transportation, reloading and safety of products. This type of transportation is carried out according to the "door to door" scheme - from the sender to the recipient. Often there is confusion in terms when the concepts of multimodal, intermodal, unimodal transportation are mixed. The determining factor is the degree of responsibility of the carrier: Unimodal transportation is not accompanied by reloading of goods in transit; intermediate storage in warehouses is excluded from the scheme. The main mode of transport is road transport, the responsibility for the cargo lies with one carrier.

## REFERENCES

1. Hamza S. S., Giyosovna S. D. Development of Optimization Models of Logistics Processes in Large Cities //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 246-253.
2. Hamza ogli, Shodiyev Shohzod, and Shodiyeva Dildora Giyosovna. "JAMOAT TRANSPORTIDA YO 'LOVCHILAR TASHISHNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI VA UNDA TRANSPORT LOGISTIKASI O'RNI." *Ustozlar uchun* 45.5 (2023): 43-50.
3. Shodiyeva, D. G., Shernazarov, F. F. o'g'li, & Tohirova, J. I. qizi. (2023). BAKTERIYALARING IKKILAMCHI BIOLOGIK FAOL METABOLITLAR SINTEZ QILISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING FARMASEVTIKADA QO'LLANILISHI. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(1), 269–276. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/1455>
4. G'iyosovna , S. D. ., Mansur o'g'li, S. S. ., & Izzatullayevna, T. J. (2023). CICHORIUM INTYBUS KO'CHATLARIDAN OLINGAN YANGI KISLOTA FOSFATLARINING KINETIK VA TERMODINAMIK TADQIQOTLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(7), 428–434. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5283>
5. Shodiyeva , D. G., & Annayev , M. G. o'g'li. (2023). DOMINANT MICROORGANISMS IN CICHORIUM INTYBUS. *GOLDEN BRAIN*, 1(3), 175–181. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1492>
6. Shodiyeva , D. G., & Xoljigitov , X. T. o'g'li. (2023). HUMAN IMMUNITY. *GOLDEN BRAIN*, 1(5), 174–180. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1718>
7. Худжанова М. А., Шодиева Д. Г., Холжигитов Х. Т. СОСТОЯНИЕ МИКРОЭЛЕМЕНТНОГО СТАТУСА У ДЕТЕЙ БОЛЬНЫХ ОСТРОЙ

РЕСПИРАТОРНО-ВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИЕЙ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 15-19.

8. Shodiyeva Dildora, & Annayev Muxriddin. (2023). Berberis integerrimaning umumiy tasnifi, tarqalishi va tibbiyotda qo'llanilishi. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(1), 7–12. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/24>
9. Shodiyeva , D. G., Annayev , M. G. o'g'li, Mamarasulova , N. I., & Odilova , G. M. (2023). BERBERIS INTEGERRIMA BUNGENING IKKILAMCHI METABOLITLARINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA BIOTEXNOLOGIK AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(10), 33–43. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/2998>
10. Annayeva, D. (2022). CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(6), 54–61. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755>
11. Azimovich, A. U. B., G'iyosovna, S. D., & Zokirovna, M. M. (2022). XLAMIDIYANING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI MIKROBIOLOGIK TAHILLI VA DIOGNOSTIKASI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(11), 153-161. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7305057>
12. Giyosovna, S. D. (2023). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIK QISMLARIDAN ENDOFIT BAKTERIYALARING SOF KULTURALARINI AJRATISH USULLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 387-393. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3573>
13. Shodiyeva, D. (2023). BIO-MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND USE IN TRADITIONAL MEDICINE OF CICHORIUM INTYBUS. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 252-256. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1337>
14. Жамалова , Ф. А., Болтаев , К. С., & Шодиева , Д. Г. (2023). ВОЗБУДИТЕЛИ МИКОЗОВ СЛЕПНЕЙ НА ТЕРРИТОРИИ РАЗЛИЧНЫХ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА. *GOLDEN BRAIN*, 1(3), 28–34. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1465>
15. Makhmudova Zakro Vahobovna, Shodiyeva Dildora, & Olimjonova Sadokat Gulomjon's daughter. (2023). BIOLOGY AND BIOTECHNOLOGY OF ENDOPHITE MICROORGANISMS. *World Bulletin of Public Health*, 18, 115-117. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/2074>
16. Olimjonova , S. G. qizi, & Shodiyeva , D. G. (2023). BAKTERIYALARINI SUYUQ VA QATTIQ OZUQA MUHITLARIDA O'STIRISH SHAROITLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(3), 182–188. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1496>

17. Shodiyeva , D. G., & Annayev , M. G. o‘g‘li. (2023). DOMINANT MICROORGANISMS IN CICHORIUM INTYBUS. GOLDEN BRAIN, 1(3), 175–181. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1492>
18. G‘iyosovna, S. D. (2023). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O‘SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATISH VA ULARNING BIOTEXNOLOGIK POTENSIALINI BAHOLASH. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1506>
19. Shodiyeva , D. G. (2023). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L ) O‘SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATISH VA ULARNING BIOTEXNOLOGIK POTENSIALINI BAHOLASH. GOLDEN BRAIN, 1(3), 230–240. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1506>
20. Shodiyeva Dildora G‘iyosovna, & Tohirova Jayrona Izzatullayevna. (2023). VAKSINA OLISH TEXNALOGIYASI VA UNING AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(3), 256–260. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7605291>
21. Vahobovna , M. Z. ., G‘ulomjon qizi, O. S. ., & G‘iyosovna , S. D. . (2023). CICHORIUM INTYBUSNI AN’ANAVIY TIBBIYOTDA QO‘LLANILISHI, FITOKIMYOVIY TARKIBI VA FARMAKOLOGIYADAGI AHAMIYATI. Scientific Impulse, 1(6), 1386–1392. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/4776>
22. Giyosovna, S. D. (2023). CICHORIUM INTYBUSDAN YANGI BIRIKMA OLISH VA ULARNING BIOLOGIK TASIRI. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 156-164.
23. Giyosovna, S. D., Mansur ogli, S. S., & Izzatullayevna, T. J. (2023). CICHORIUM INTYBUS KOCHATLARIDAN OLINGAN YANGI KISLOTA FOSFATLARINING KINETIK VA TERMODINAMIK TADQIQOTLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 428-434.
24. Giyosovna, S. D., & Abdusalomovna, J. F. (2023). BACILLUS AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARING ANTIMIKROB VA ANTOGONISTIK XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(6), 1852-1858.
25. Bobakhandova Mekriniso Fazliddinovna, & Shodiyeva Dildora G‘iyosovna. (2023). USAGE OF CICHORIUM INTYBUS IN TRADITIONAL MEDICINE, PHYTOCHEMICAL COMPOSITION AND IMPORTANCE IN PHARMACOLOGY. GOLDEN BRAIN, 1(5), 43–49. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7663888>
26. G‘iyosovna, S. D., & Toshtemir o‘g‘li, X. X. (2023). HUMAN IMMUNITY.
27. Bobakhandova, M. F. (2023). USAGE OF CICHORIUM INTYBUS IN TRADITIONAL MEDICINE, PHYTOCHEMICAL COMPOSITION AND IMPORTANCE IN PHARMACOLOGY. GOLDEN BRAIN, 1(5), 43-49.
28. G‘iyosovna, S. D., & Muxriddin G‘iyos o‘g, A. (2023). DOMINANT MICROORGANISMS IN CICHORIUM INTYBUS.
29. G‘iyosovna, S. D. (2023). BAKTERIYALARNI SUYUQ VA QATTIQ OZUQA MUHITLARIDA O‘STIRISH SHAROITLARI.

30. Boltayev, K. S., & Jamalova, F. A. (2023). MIKOZLARGA MIKROBIOLOGIK MIKROSKOPIK TASHXIS QO ‘YISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(3), 35-40.
31. Tohirova, J. I. (2023). VAKSINA OLISH TEXNALOGIYASI VA UNING AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(3), 256-260.
32. Jamalova, F. A., & Boltayev, K. S. (2023). BACILLUS THURINGIENSIS BAKTERIYALAR ASOSIDA YARATILGAN BIOPREPARATLAR. GOLDEN BRAIN, 1(3), 23-27.
33. Vahobovna, M. Z., & Giyosovna, S. D. (2023). CICHORIUM INTYBUSNI ANANAVIY TIBBIYOTDA QOLLANILISHI, FITOKIMYOVIY TARKIBI VA FARMAKOLOGIYADAGI AHAMIYATI. Scientific Impulse, 1(6), 1386-1392.
34. Giyosovna, S. D., Mansur ogli, S. S., & Izzatullayevna, T. J. (2023). CICHORIUM INTYBUS KOCHATLARIDAN OLINGAN YANGI KISLOTA FOSFATLARINING KINETIK VA TERMODINAMIK TADQIQOTLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 428-434.
35. o‘g‘li Shernazarov, F. F., & qizi Tohirova, J. I. (2023). BAKTERIYALARNING IKKILAMCHI BIOLOGIK FAOL METABOLITLAR SINTEZ QILISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING FARMASEVTIKADA QO ‘LLANILISHI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(1), 269-276.
36. Shodiyeva, D., Bobakandova, M., Annaev, M., & Tokhirova, J. (2023). IDENTIFICATION AND ISOLATION OF ENDOPHYTIC FUNGI PRODUCING L-ASPARAGINASE IN REPRESENTATIVES OF THE ASTERATCEA FAMILY. Science and innovation, 2(D2), 107-112.
37. Giyosovna, S. D., Fazliddinovna, B. M., & Shodiyevich, S. H. (2023). FITOPATOGENLARGA QARSHI BAKTERIYALARDAN FOYDALANISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH. IQRO JURNALI, 2(1), 78-82.
38. Annayev, M., Shodiyeva, D., & Annayev, M. (2023). BACILLUS SAFENSIS BAKTERIYA SHTAMLARINING BIOTEXNOLOGIK POTENSIALINI BAHOLASH. GOLDEN BRAIN, 1(7), 25-30.
39. Hamza, S. S., & Giyosovna, S. D. (2023). Development of Optimization Models of Logistics Processes in Large Cities. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(6), 246-253.
40. Shodiyeva , D. G., & Xoljigitov , X. T. o‘g‘li. (2023). HUMAN IMMUNITY. GOLDEN BRAIN, 1(5), 174–180. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1718>
41. Azimovich, A. U. B. Shodiyeva Dildora G ‘iyosovna.”. O ‘SIMLIK O ‘SISHI VA RIVOJLANISHIDA FOYDALI MIKROORGANIZMLARNING AHAMIYATI.” *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1, 257-260.
42. Fazliddinovna, B. M. Shodiyeva Dildora G‘iyosovna.(2023). USAGE OF CICHORIUM INTYBUS IN TRADITIONAL MEDICINE, PHYTOCHEMICAL.

43. Azimovich, A. U. B. Shodiyeva Dildora G 'iyosovna, and Maximov Aziz Akmalovich." ANTIBIOTIKLAR TA'SIR DOIRASIGA KO 'RA KLASSIFIKATSIYASI." Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali 1, no. 17 (2023): 245-251.
44. Shodiyeva, D., & Shernazarov, F. (2023). Analysis of the compounds providing antihelmitic effects of chichorium intybus through fractionation. Science and innovation, 2 (D2), 64-70.
45. THEERTHA MOHAN JOSE MERIN TREESA PADIMALLA USHASREE PRATAP THARANI, & ANNAEV MUZAFFAR. (2023). MYOCARDITIS AND PERICARDITIS. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(9), 1885–1896. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/933>
46. Shodiyeva, D., Jamalova, F., Annayev , M., & Tohirova, J. (2023). HISTORY OF STUDY OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS. *GOLDEN BRAIN*, 1(14), 20–29. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3598>
47. Dildora, S., Fazliddinovna, M., Gulnoza, O., & Shohzod, S. (2023). BACILLUS PUMILIS BAKTERIYALARI MIKROBIOLOGIK TAHЛИLI VA BIOTEXNOLOGIYADAGI AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(2), 154-161. [https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=BACILLUS+PUMILIS+BAKTERIYALARI+MIKROBIOLOGIK+TAHLILI+VA+BIOTEXNOLOGIYADAGI+AHA+MIYATI.&btnG=](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=BACILLUS+PUMILIS+BAKTERIYALARI+MIKROBIOLOGIK+TAHLILI+VA+BIOTEXNOLOGIYADAGI+AHA+MIYATI.&btnG=)
48. G'iyosovna , S. D ., Mansur o'g'li, S. S. ., & Izzatullayevna, T. J. (2023). CICHORIUM INTYBUS KO'CHATLARIDAN OLINGAN YANGI KISLOTA FOSFATLARINING KINETIK VA TERMODINAMIК TADQIQOTLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(7), 428–434. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5283>
49. Shodiyeva , D. G., Annayev , M. G. o'g'li, Mamarasulova , N. I., & Odilova , G. M. (2023). BERBERIS INTEGERRIMA BUNGENING IKKILAMCHI METABOLITLARINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA BIOTEXNOLOGIK AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(10), 33–43. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/2998>
50. Viswaprasad , A., & Annaev , M. (2023). BRONCHIAL ASTHMA: CURRENT CONCEPTS. *Interpretation and Researches*, 1(10). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1231>
51. Chettiam , S., Maffi, J. V., Alexander , D., Joseph , J., & Annaev , M. (2023). NEW FINDINGS AND PATHOLOGICAL ASPECTS OF PNEUMONIA. *Interpretation and Researches*, 1(9). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/778>

## MATEMATIKA DARSLARIDA “AQLIY HUJUM” INTERFAOL USULIDAN FOYDALANISH

**Muxamadiyeva Moxira Abbaskulovna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi

va 27-maktab in boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

[moxiramuxamadiyeva923@gmail.com](mailto:moxiramuxamadiyeva923@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada biz darslarni olib borishdagi eng yaxshi usullardan biri “Aqliy hujum” metodi haqida bat afsil bayon etilgan. Bu metodning muhim jihatlari shundaki o‘quvchini o‘z ustida ishlashiga ta’sir ko‘rsatadi.*

*Kalit so‘zlar: muammo, nostandard fikrlash, g‘oya, mulohaza, Breynstorming.*

## **USING THE INTERACTIVE METHOD OF "INTELLIGENT ATTACK" IN MATHEMATICS LESSONS**

### **ABSTRACT**

*This article describes in detail about one of the best methods we use in teaching, the Brainstorming method. The important aspects of this method are that it influences the student to work on himself.*

*Key words:* problem, non-standard thinking, idea, reasoning, Breynstorming.

**“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”**

***Sh.Mirziyoyev***

Umumta'lim mакtablarining boshlang'ich sinflarida ta'lim jarayonini amalgalash, talim-tarbiya ishlarini yaxshilash, zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish, jamoatchilik asosida ta'lim muassasasi o'rtaSIDagi hamkorlikni yuzaga keltirish, uni mustaxkamlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda qo'llanadigan texnologiyalaridan foydalanishning maqsadi: O'quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirish, bahs-munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakillantirishdan iborat. Hozirda keng qo'llanib kelayotgan interfaol metod turlari juda ko'p lekin, ularning hammasi ham boshlangich ta'limda qo'llab bo'lmaydi. Bunga birinchi navbatda boshlangich sinf o'quvchisining o'qish, yozish tezligining pastligi va sinfda aksariyat hollarda 30 tadan ortiq o'quvchi o'qishi bo'ladi. Interfaol metodlar nisbatan kichik auditoriyalarga va ko'proq uzluksiz ta'lim tizimining o'rta va yuqori bo'ginlariga mo'ljallangan bo'lib, boshlangich sinflarda qo'llash tajribalari juda kam. Shuning uchun yangi texnologiyalarning faqat boshlangich sinf matematika darslarida qo'llash mumkin bo'lganlari haqida so'z yuritamiz. Aqliy hujum" metodini qo'llash bir muammoni hal qilish yo'lidan turlicha va iloji boricha ko'proq taklif, fikr - mulohazalarni yig'ishdan iborat. Avvaliga har qanday takliflar qabul qilinadi. Keyin esa, ularning ichidan eng ma'qulini tanlab olinib ular orqali ma'lum bir yechimga keladigan samarali usullardan biridir. U to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijobiy va nostandard fikrlashga o'rgatadi.. Bu metodni qo'llashda eng nozik tomoni hamma takliflarni -Eslab qolishdir. Shuning uchun ularni yozib borish kerak bo'ladi. O'qituvchi ularni shartli belgilar va qisqartirishlar bilan doska yoki qog'ozga yozib boradi.

Masalan: 3 - sinfda mavzuga oid quyidagi mashqni hal qilish yuzasidan hamma takliflarni yig'ish mumkin.

- Quyidagi shaklda nechta uch burchak bor?



Bunda takliflar uchburchaklar sonini sanash usuliga oid bo‘lib, ularning sonini to‘g‘ridan - to‘g‘ri aytish mumkin va turli takliflar bildirish mumkin. Eng maqbuli avval 1shaklli , keyin 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8shakldan tuzilgan uchburchaklar sonini sanashni taklif qilish mumkin. uchburchaklar sonini sanashni taklif qilish mumkin. Yoki quydagi masalaga nazar tashlasak qaysi usulda masala yechilishi yuzasidan takliflar yig‘iladi.

Jami hayvonlar				
214 ta	? ,  dan 5 marta kam	35 ta	? ,  dan 13 marta ko‘p	?

Masalan: Birichi bo‘lib qaysi hayvon topiladi deb so‘raladi. Hamma takliflar qabul qilinadi. ularning bir nechasi bo‘yicha hayvonlar soni topiladi va usullar taqqoslanadi. Darsda berilgan masala, misol va topshiriqni juft bo‘lib hal qilishi ham o‘quvchilarni o‘zaro fikr almashishga, bir - birini to‘ldirishi, kerak bo‘lsa bir - biriga o‘rgatishga o‘rgatadi. Bunday usulni -Juftlikda ishlash deb ataladi. O‘qituvchi o‘quvchilar mustaqil hal qilishi mumkin bo‘lgan istalgan vazifani juftlikda topshiradi. Bunday topshiriqni ijodiy harekterda bo‘lishi maqsadga muvofiqroqdir.

Aqliy hujum metodining ahamiyati haqida fikr yuritar ekanmiz, quyidagi jihatlar matematika darsining samaradorligini ta’minlashiga ishinch hosil qildik.

1) Hozirjavoblikka o‘rgatiladi.

- 2) Hamma o‘quvchi birdan baholanadi.
- 3) Nutqi rivojlanadi.
- 4) O‘quvchining tafakkur faoliyatini oshiradi.
- 5) Ilmiy-nazariy bilimga ega qiladi.
- 6) O‘quvchi bilimiga tashhis qo‘yiladi.
- 7) Fikrini erkin izoxlayoladi.
- 8) O‘quvchilarning psixologiyasiga e’tibor beriladi.

Shuni e’tirof etish joizki “brein storming” (inglizcha «aqliy hujum») uslubi amerikalik olim A.Osborn tomonidan 1930 yilda taklif etilgan bo‘lib, unda loyihalarni rejalashtirish va uning natijalarni oldindan bashorat qilish kuzda tutilgan edi. «Breynstorming» uslubining psixologik mohiyati shundaki, munozaraga kirilganda bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr kelsa, uni tanqidsiz, erkin aytish imkoniyati beriladi. Oxirida esa bahslashuvchilar ma’lum rasional «mag‘z»ni ajratib olishadi.

Dars mobaynida o‘qituvchi mavzuning xarakteri va u shakllantirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va fazilatlarga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi va shundan keyingina mashg‘ulotni boshlashi kerak. Masalan, keyingi paytlarda keng ko‘lamda qo‘llanilayotgan munozara yuritishning «breynstorming» shaklini olib qaraydigan bo‘lsak, bunda bahslashuvchilar ko‘proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2000.
2. 3- sınıf Matematika darsligi.
3. Minamatov, Y. E. U. (2021). APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY. Scientific progress, 2(8), 911-913.
4. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Nasirdinova, M. H. Q. (2022). APPLICATION OF ICT IN EDUCATION AND TEACHING TECHNOLOGIES. Scientific progress, 3(4), 738-740.

5. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Yusupova, N. M. (2022). SMART TEXNOLOGIYALARDA TA'LIM JARAYONI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(6), 441-445.
6. S. Alixonov. Matematika o‘qitish metodikasi. "Cho‘lpon" - T. 2011. 320 s.
7. Jumaev M.E, Matematika o‘qitish metodikasi (KIIK uchun ) Toshkent. "Ziyo" 2003 yil.

## TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	<b>To'lqinboyeva Mahliyo. (2023). BASIS, ESSENCE OF PEDAGOGICAL INTEGRATION AND MECHANISMS OF ITS IMPLEMENTATION IN PSYCHOLOGY. GOLDEN BRAIN, 1(23), 4–7.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8287067"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8287067</u></a>
2	<b>Сабитова Ирода Иброхим қизи, &amp; Асмандиярова Регина Бахтиер қизи. (2023). СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ ГИДРОТЕХНИЧЕСКИХ СООРУЖЕНИЙ. GOLDEN BRAIN, 1(23), 8–14. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8287085"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8287085</u></a></b>
3	<b>Qimatboyev Shavkatjon Furqatzoda. (2023). DAVLAT VA HUQUQNING O'ZARO RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. GOLDEN BRAIN, 1(23), 15–18.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8287091"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8287091</u></a>
4	<b>Hojiqulova Feruza Dona qizi, &amp; Eshquvvatov Otabek Abdullayevich. (2023). MAMLAKAT IQTISODIYOTINI YUKSALTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI. GOLDEN BRAIN, 1(23), 19–23.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8287097"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8287097</u></a>
5	<b>Toshpo'latova Nigora Avliyoqulovna. (2023). SHARQDA DIN PSIXOLOGIYASI. GOLDEN BRAIN, 1(23), 24–30. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8287099"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8287099</u></a></b>
6	<b>Eshboyeva Dinora. (2023). BEHBUDIYNING SIRLI O'LIMI. GOLDEN BRAIN, 1(23), 31–34. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8287110"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8287110</u></a></b>
7	<b>Rikhsimboev Azizbek. (2023). IDENTIFICATION OF REGULATIONS AND RULES IN INTERNATIONAL MULTIMODAL TRANSPORTATION. GOLDEN BRAIN, 1(23), 35–42. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8287114"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8287114</u></a></b>
8	<b>Muxamadiyeva Moxira Abboskulovna. (2023). MATEMATIKA DARSLARIDA "AQLIY HUJUM" INTERFAOL USULIDAN FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 1(23), 43–47. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8287118"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8287118</u></a></b>